4. http://www.stat.uz Davlat Statistika qo'mitasining sayti

UO'K:

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH MASALALARI

Mirzabayev Xusniddin
tayanch doktorant,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish zarurati, mahalliylashtirish tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni, mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishga oid imkoniyatlari tadqiq etilib, mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish yuzasidan nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *mahalliylashtirish, raqobatbardosh mahsulot, import, eksport, sanoat kooperatsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar.*

Абстрактный*. В данной статье исследуются необходимость локализации производства продукции в деятельности субъектов предпринимательства, экономический смысл понятия локализации, возможности производства продукции на основе локализации, а также теоретические и практические предложения по локализации производства продукции. развиты.*

Ключевые слова*: локализация, конкурентоспособная продукция, импорт, экспорт, промышленная кооперация, социально-экономические факторы.*

Abstract*. In this article, the need to localize the production of products in the activities of business entities, the economic meaning of the concept of localization, the possibilities of product production based on localization are researched, and theoretical and practical proposals for the localization of product production are developed.*

Key words*: localization, competitive product, import, export, industrial cooperation, socio-economic factors.*

Kirish

Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy faoliyat yuritishning barcha muammolari ikki fundamental vazifani xal etish bilan bog'lanadi. Fuqarolarning ehiyojlarining chegarasizligi va uni qondirish hamda mahsulot ishlab chiqarish uchun chegaralangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish vazifasi turadi. Har qanday jamiyat cheklangan resurslarni ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida qay darajada samarali, to'g'ri taqsimlash hamda turli ne'matlarning qancha miqdorda ishlab chiqarishi lozimligini anglashi muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy ne'matlar bir-birini o'rnini to'ldiruvchi ne'matlardir, chunki ularning jami hayot davomiyligi uchun zarur. Ehiyojlar kishilarning yashashi uchun kerak bo'lgan birlamchi zaruriy ne'matlardan (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy) va ikkilamchi xizmatlar (dam olish ehiyojlari, teatr, sport va x.k.)dan iborat bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun iqtisodiy resurslardan foydalaniladi va o'z navbatida ulardan foydalanish natijasida tovar va xizmatlar yaratiladi. Shunga ko'ra resurslar moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi.

Yurtimizdagi mahalliy xomashyo asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlay olishida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu nuqtai nazardan jamiyatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda

ishlab chiqarishni mahalliylashtirish ko’lamini yanada kengaytirish ahamiyat molik masala bo’lib qolmoqda.

Taxlil. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishda iste’mol tovarlari hamda talab ko‘p bo’lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag’batlantirish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalliylashtirish dasturi o’z mazmuniga asosan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh va import o’rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, imkon qadar import hajmini qisqartirish, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ko‘plab ish o‘rinlarini yaratish kabi maqsadlarni amalga oshiradi. Mahalliylashtirish dasturlarini hayotga tadbiq etish orqali to’plagan tajribalar iqtisodiyotning tashqi omillarga bog’liqligini kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorni zarur iste’mol tovarlari va butlovchi mahsulotlarga to’ldirish, valyuta zaxiralarini tejash va ulardan samarali foydalanish, aholi bandligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Bu borada “butun iqtisodiyot tizimida mahsulotlar tayyorlash jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasini muttasil oshirish, import o’rnini bosish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, sanoat korxonalaridagi uskunalarni zamonaviylariga almashtirish hamda shu asosda, qo’shilgan qiymat yaratishning yagona zanjirini hosil qilish bilan bog’liq vazifalar o’z dolzarbligini saqlab qolmoqda.”[1]

Keyingi yillarda dunyo davlatlari orasida raqobatning keskinlashuvi, xalqaro bozorlarda innovatsiya darajasi yuqori bo’lgan mahsulotlarga talabning ortishi xususan, jahon bozorlarida fan-texnika sig’imi yuqori mahsulotlarga ehtiyojning kuchayishi dunyo davlatlarining milliy eksport tarkibida yuqori texnologiyali mahsulotning ulushini ko’paytirishga bo’lgan intilishlarini, bu esa milliy iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish zaruriyatini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, mahalliy iste’mol bozorlarini sifatli tovarlar bilan to’ldirish, bozordagi talab va taklif muvozanatni ta’minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, hozirda muhim bo’lgan ishsizlikni oldini olish hamda aholi daromadlarini oshirish kabi muammolarni samarali hal qilishning vositalaridan bir bo’lmoqda. Demak, yuqorida nazarda tutilgan jarayonlar mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion tarzda rivojlantirishni talab etmoqda.

“Mahalliylashtirish - (ingliz tilida “localization” lotin tilining “locus” so’zidan olingan bo’lib, “joy, makon” ma’nolarini ifodalaydi) - muayyan bir joyga tegishli bo’lmoq, tarqalib ketishni cheklash, me’yor va chegaralarni qurish” degan ma’noni anglatadi. A.M.Vazyanskiy ishlab chiqarishni mahalliylashtirish haqida “ishlab chiqarishni mahalliylashtirish - asl xorijda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni boshqa mamlakat hududida ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish jarayoni”.[2] degan fikrni bildirib o‘tgan.

Hozirgi glaballashuv iqtisodiy jarayonda amalga oshiriladigan tarkibiy o’zgarishlarning yana bir muhim yo’nalishlari bu import o’rnini bosuvchi, eksport bop mahsulotlarni ishlab chiqarishlarni tashkil etish va rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlarda ish tashkil etilishi ya’ni, mamlakatga to’g’ridan-to’g’ri chet el investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy hamkorlar ishtirokida qo’shma korxonalar yoki sof chet el kapitaliga hisobidan korxonalar tashkil etish asosida yangi turdagi, ilgari mamlakatda ishlab chiqarilmagan mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Navbatdagi bosqichda respublika hududlarida ushbu tayyor mahsulotlarning butlovchi qismlarini mahalliy xom ashyo resurslari asosida ishlab chiqarish uchun tadbirkorlik sub’ektlarini jalb etgan holda yangi qo’shma korxonalar, milliy korxonalar tashkil etilib, import o’rnini bosuvchi, eksport bop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo’lga qo’yiladi. Bunday mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilib, tayyor mahsulot tannarxidagi ulushi kamaytirilishiga erishiladi.

Ushbu yuqoridagi faoliyat mehnat taqsimotining rivojlantirish orqali ishlab chiqarishni ixtisoslashtirilishini asosida uning sanoat kooperatsiya aloqalarining kengaytirilib borishi yo’li bilan amalga oshiriladi. Natijada mamlakat va uning hududlarida raqobatbardosh, import o’rnini bosuvchi, eksportga yo’naltirilgan yangi ishlab chiqarishlarning tashkil etilishiga erishiladi. Bu jarayonlarini ishlab chiqarishni **mahalliylashtirish** deb atash mumkin.

Mahalliylashtirish dasturlari o’zining majmuaviyligi va keng qamrovliligi bilan xarakterlanib, unda qisqa va o’rta muddatli davrlarda sanoatni rivojlantirishning kutilgan parametrlari, sanoat tuzilmasini takomillashtirish masalalari, tarmoqlararo kooperatsion aloqalarni rivojlantirish va mahalliylashtirishni yanada kengaytirish, iqtisodiyotni raqobatdoshligini oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni har tomonlama qo’llab - quvvatlashni kuchaytirish, biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini rag’batlantirish hamda yangi bozorlarga kirib borish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

So‘nggi yillarda mahsulot ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishda qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliylashtirish faoliyati bilan shug’ullanayotgan real sektor vakillariga bir qator imtiyozlar, jumladan, bojxona va soliq imtiyozlari, banklar tomonidan maqsadli kreditlar ajratib kelinmoqda. Jumladan 2024-yil 1-iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalarga, uch yil davomida nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo’lgan barcha xomashyolar mahalliylashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etilishi belgilangan.[3]


Mahalliylashtirishni qo’llab-quvvatlash masalasi ko’rib chiqilar ekan, bunday loyihalarni amalga oshirishda hukumat tomonidan kafillik berish va kredit foiz stavkasini qisman qoplash tizimidan foydalanish o’z samarasini berib kelmoqda.

Shuningdek, bojxona to’lovlarini 120 kungacha uzaytirib to’lash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirgan korxonalarning tayyor mahsulotlarini sertifikatlash va standartlashtirish masalalarida ko’maklashish tadbirkorlarga qo’shimcha imkoniyat mavjudligini bildiradi. Shu o‘rinda davlat xaridlarida mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish va rag’batlantirish, tashqi savdoni tarif usuli bilan boshqarish samaradorligini oshirish bo’yicha ham ustuvor vazifalar belgilandi.[4]

Tadbirkorlik faoliyatida mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga bir qator ta’sir ko’rsatuvchi omillar mavjud bo’lib ular quyidagi jadvalda keltirildi. (1-jadval).

1-jadval

Tadbirkorlik subektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bosqichlari



Tadbirkorlik subektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi. Bu erda asosiy jihatlarga batafsil to‘xtalinadi.

1. Bozor tahlil qilish; - Talabni baholash: Mahsulotga bozor talabini o‘rganish. Mahalliy ishlab chiqarishni oqlaydigan sezilarli talab mavjudligini tahlil qilish.

- Raqobatchilar tahlili: Hozirgi raqobatchilarni, jumladan, import qilinadigan mahsulotlarni aniqlash. Ularning bozor ulushini, narxini va sifatini baholash.

- Iste’molchilarning mulohazalari: Mahsulotga oid iste’molchilarning fikrlari, jumladan xususiyatlar, sifat va narxlarga sezgirlik haqida ma’lumot to‘plash.

2. Mahsulot ishlab chiqish; - Mahsulot dizayni: Mahsulot dizayni mahalliy iste’molchilarning ehtiyojlari va afzalliklariga javob berishiga ishonch hosil qilish.

- Sifat standartlari: Import qilinadigan mahsulotlar bilan samarali raqobatlashish uchun yuqori sifatni saqlash. Tegishli sifat standartlari va sertifikatlarini aniqlash va joriy etish choralarini ko‘rish.

- Innovatsiya: Import qilingan muqobillarga nisbatan raqobatbardosh ustunlikni ta’minlaydigan har qanday potentsial innovatsiyalar yoki afzalliklarni qo‘llash.

3. Qoidalarga muvofiqlik; - Mahalliy qoidalar: Barcha mahalliy qoidalar va standartlarni, shu jumladan xavfsizlik, sog‘liq va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini o‘rganish va ularga rioya qilish.

- Import cheklovlari: Raqobat muhitiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘xshash mahsulotlarni import qilish bo‘yicha har qanday tariflar, bojlar yoki cheklovlardan xabardor bo‘lish.

- Intellektual mulk: Mahsulotini patentlari, savdo belgilari va boshqa intellektual mulk huquqlari orqali himoya qilish.

4. Ta’minot zanjiri boshqaruvi; - Xom ashyo: Xom ashyo zaxiralarining mavjudligi va ishonchliligini ta’minlash. Mahalliy va import qilinadigan xom ashyoning narxi, sifati va izchilligini baholang.

- Logistika: Materiallarni xarid qilish va tayyor mahsulotlarni bozorga samarali va tejamkorlik bilan yetkazib berish uchun mustahkam logistika rejasini ishlab chiqish.

- Yetkazib beruvchilar bilan aloqalar: Barqaror va ishonchli ta’minot zanjirlarini mustaxkamlash uchun yetkazib beruvchilar bilan huquqiy aloqalarni o‘rnatish.

5. Moliyaviy rejalashtirish; - Kapitalga qo‘yiladigan talablar: Ishlab chiqarish quvvatlarini, jumladan, asbob-uskunalar, texnologiya va inson resurslarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan dastlabki investitsiyalarni aniqlash.

- Moliyalash manbalari: Kreditlar, investorlar, grantlar yoki subsidiyalar kabi turli moliyalashtirish variantlarini o‘rganish. Mahalliylashtirish dasturlariga davlat imtiyozlari ham hal qiluvchi omil bo‘lishi mumkin.

- Xarajatlarni boshqarish: Ishlab chiqarish, mehnat, marketing va tarqatish xarajatlarini o‘z ichiga olgan operatsion xarajatlarni rejalashtirish. Daromadlilikni saqlash uchun xarajatlarni nazorat qilish choralarini amalga oshirish.

6. Ishlab chiqarish va operatsiyalar; - Ishlab chiqarish ob’ektlari: Tegishli ishlab chiqarish ob’ektlarini qurish yoki sotib olish. Xom ashyoga yaqinlik, ishchi kuchining mavjudligi va logistika kabi joylashuv afzalliklarini tahlil qilish.

- Texnologiya va uskunalar: Yuqori sifatli ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash uchun zamonaviy va samarali texnologiya va uskunalarga sarmoya kiritish.

- Kadrlar: Malakali ishchilarni yollash va kerakli treninglarni ta’minlash. Mehnat to‘g‘risidagi qonunlarga rioya qilishni ta’minlash va yaxshi mehnat sharoitlarini saqlash.

7. Marketing va sotish; - Milliy Brend yaratish: Mahalliy mahsulotning yangiligi, milliy qadriyatlarga asoslangan va boshqa afzalliklarini ta’kidlaydigan kuchli brendni ishlab chiqish.

- Narxlar strategiyasi: Iste’molchilarni import qilinadigan mahsulotlardan uzoqlashtirish va rentabellikni ta’minlash uchun raqobatbardosh narxlarni belgilang.

- Tarqatish kanallari: Maqsadli bozoringizga erishish uchun samarali tarqatish kanallarini yaratish. Bunga to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo, chakana sotuvchilar, ulgurji sotuvchilar yoki onlayn platformalar kiradi.

8. Xavflarni boshqarish; - Bozor tavakkalchiliklari: Bozordagi tebranishlarni, iste’molchilarning xohish-istaklaridagi o‘zgarishlarni va talabga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy sharoitlarni oldindan bilish.

- Operatsion xavflar: Ishlab chiqarish kechikishlari, ta’minot zanjiri uzilishlari va uskunalarning nosozliklari kabi operatsion xavflarni aniqlash va kamaytirish choralarini belgilash.

- Moliyaviy tavakkalchiliklar: Ehtiyotkorlik bilan byudjet tuzish, naqd pul zaxiralarini saqlash va kutilmagan xarajatlar uchun favqulodda rejalar tuzish orqali moliyaviy risklarni boshqarish.

9. Barqarorlik; - Atrof-muhitga ta’sir: Atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish uchun ishlab chiqarishda barqaror amaliyotlarni amalga oshirish. Bunga resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni boshqarish va yashil texnologiyalarni joriy etish kiradi.

- Ijtimoiy mas’uliyat : Milliy hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlovchi va korxona obro’sini oshiradigan faoliyati bilan shug‘ullanish. Bunda turli xil stipendiyalar berish, laboratoriyalar va kutubxonalar, kasalxonalar qurish yoki atrof-muhitni muhofaza qilishga, ijtimoiy muhofazaga muxtojlarga turli yordamlarni tashkil etishda ishtirok etish.

10. Doimiy takomillashtirish; - Qayta aloqa mexanizmlari: Mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish uchun mijozlar va manfaatdor tomonlardan fikr-mulohazalarni yig‘ish mexanizmlarini yaratish.

- Innovatsiya va ilmiy tadqiqot: Bozor tendentsiyalari va raqobatchilardan oldinda bo‘lgan holda mahsulotni yangilash va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish.

Hukumat tomonidan yaratib berilgan sharoitlar hisobiga bugungi kunda Namangan viloyatda jami 73 ta kichik sanoat va 2 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, hozirga qadar ushbu sanoat zonalariga qiymati 1,2 mlrd. dollarlik 1 300 tadan ortiq loyihalar joylashtirilgan. Hozirga qadar qiymati 475 mln. dollarlik 835 ta loyihalar ishga tushirilib, 50 mingta yangi ish o’rinlari yaratildi.[5]

Mazkur sanoat zonalariga birinchi navbatda import o’rnini bosadigan, mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan loyihalarni joylashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2023 yilda sanoat zonalaridagi ishga tushgan loyihalarda jami 4,9 trln. so’mlik, shundan 513,2 mlrd. so’mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 45,4 mln. dollar importning oldi olinishiga erishildi.

Respublikamizda mahalliylashtirish orqali mahsulotlar ishlab chiqarish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiya aloqalarini kengaytirish iqtisodiyotning e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yo’nalishlaridan hisoblanadi.

2-jadval

Namangan viloyatida 2018-2023 yillarda mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi[6]

№	Ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023y. da 2022 yilga nisbatan baroba r
	Mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi	mlrd.so’m	19,9	109,7	234,4	569,1	1374,6	1862,2	1,35
		mln.dollar	1,1	4,9	11,0	52,7	121,6	164,7	1,35
	Yangi turdagi mahsulot soni	birlik	7	9	12	20	23	25	1,09
	Loyiha soni	birlik	16	13	46	59	75	80	1,07
	Korxonalar soni	birlik	7	4	28	44	61	62	1,02

Yuqoridagi jadvalda Namangan viloyatida 2018-2023 yillarda mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi keltirligan bo’lib, o’tgan 6 yil davomida mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish xajmi 1842,3 mlrd. so’mga (93,6 barobarga) ortganligini ko’rish mumkin.

Mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda ichki imkoniyatlardan foydalanib, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi loyihalar evaziga mahsulot turlarini ko’paytirish, import o’rnini to’ldirish bu kabi mahsulotlarni korxonaning o’zida ishlab chiqarish lozimligini ko’rsatmoqda. Shu bois, bugungi o’zgaruvchan sharoitda iqtisodiyotimizning barqaror o’sishini ta’minlashning eng samarali yo’li – ichki imkoniyatlarni ishga solish, ya’ni mamlakatga import bo’layotgan tayyor mahsulotlarni yurtimizda ishlab chiqarish va mahalliy mahsulot ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishdir. Bu borada sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirishni yanada kengaytirish masalasi dolzarb bo’lib qolmoqda.

Xulosa

Tadbirkorlik subektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga quyidagi ijobiy ta’sirlarni ko‘rsatishi mumkin:

- importga qaramlikning kamayishi: Mahalliylashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar import qilinadigan tovarlar o’rnini bosadigan mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlardir. Ushbu tovarlarni mahalliy ishlab chiqarish orqali mamlakatning shu kabi import mahsulotlarga qaramligini kamaytirishi mumkin, bu importga ta’sir qiluvchi geosiyosiy keskinliklar, savdo to’siqlari jarayonida salbiy oqibatlarni oldini oladi.

- mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish: Mahaliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni ortishi mahalliy tadbirkorlikni rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu bilan resurslardan samarali foydalanishni, yurtimizda o’sib borayotgan ishsizlikni kamaytirishni, aholini daromadlarini barqarorligini ta’minlaydi, chunki ushbu sohalarda faoliyatni ta’minlash uchun ko’proq ishchi kuchi jalb qilinadi. Bundan tashqari, u innovatsiyalar va texnologik

yutuqlarni rag’batlantiradi, sababi tadbirkorlar o’zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlar import qilinadigan tovarlar bilan raqobatlashish uchun samaradorlik va sifatni oshirishga intiladi.

- savdo balansini barqarorlashtirish: Importni qisqartirish va mahalliy ishlab chiqarishni ko’paytirish orqali mamlakat savdo balansini yaxshilanadi. Bu tashqi iqtisodiy havfni va xalqaro bozorlardagi tebranishlarga nisbatan zaiflikni kamaytirish orqali yanada barqaror iqtisodiyotga olib keladi.

- yordamchi tarmoqlarni rivojlantirish: Mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish ko’pincha boshqa tarmoqlardan, masalan, xomashyo, mashinasozlik va xizmatlarni talab qiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini qo’llab-quvvatlovchi, iqtisodiy o’sish va aholi bandligini yanada rag’batlantiruvchi yordamchi tarmoqlarning rivojlanishiga olib keladi.

- daromadlarni ortishi: tadbirkorlar tomonidan mahalliylashtirish orqali mahsulot ishlab chiqarish xajmini o’sishi va raqobatbardoshligi oshishi bilan ular ichki sotish va eksportga chiqarish orqali ko‘proq daromad olishadi. Bu iqtisodiy o’sishga hissa qo’shishi va umumiy iqtisodiy barqarorlik uchun foydali bo’lgan valyuta manbasini ta’minlaydi.

- uzoq muddatli iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishga sarmoya kiritish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga hissa qo’shadi. Kengroq sohalarni rivojlantirish orqali mamlakat bir necha asosiy tarmoqlarga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirishi mumkin, bu esa iqtisodiyotni tashqi ta’sirlarga nisbatan chidamliroq va uzoq muddatli istiqbolda barqaror o‘sish uchun qulayroq holatga keltiradi.

Mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashuviga, yangi ish o’rinlari yaratishga, mavjud resurslardan samarali foydalanishga va davomli o’sishiga hissa qo’shadi, bu esa milliy mahsulotlar ishlab chiqarishini mustahkamlash va importga qaramlikni kamaytirishga intilayotgan mamlakatimiz uchun muhim strategiya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2022. – 137 b.
2. Кузнецов В.П., Вазъянский А.М. *Локализация производства как инструмент повышения экономической эффективности организации* / Вестник Череповецкого государственного университета.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024-yildagi “O’zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida PF-37-son Farmoni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 17-sentabr kuni sanoatni jadal rivojlantirish, mahalliylashtirish darajasini oshirish va ko’lamini kengaytirish masalalariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishida bildirilgan.
5. Namangan viloyat hokimligining matbuot xizmati ma’lumotlari.
6. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari.